

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI
INDONEZSHUNOSLIK MARKAZINING
2025/2026-O'QUV YILIDA
BAJARGAN ISHLARI BO'YICHA
HISOBOTI

1. Yurtimiz va xorijda faoliyat olib borayotgan indonezshunos mutaxassislarni hamkorlikka jalb qilindi: Indoneziyaning Malang islom universiteti BIPA (xorijliklar uchun indonez tiligi o'qitish dasturi) markazi boshlig'i, indonez tili mutaxassisi **Prayitno Tri Laksononi** Indoneziya Respublikasi Boshlang'ich va o'rta ta'lim vazirligi Tilni rivojlantirish agentligi sarmoyasi bilan TDSHUda 2025-yil 6-oktabrdan 21-dekabrgacha hamda 2026-yil 2-fevraldan 30-maygacha turli yo'nalishlardagi indonez tili guruhlariga talabalariga indonez tilidan saboq berdi.





2. 2025-yil 5-noyabr kuni TDSHUGa **Indoneziya Respublikasi Boshlang'ich va o'rta ta'lim vaziri Prof. Dr. Abdu Mu'ti** janoblari boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Tashrifning ikkinchi qismi barcha delegatsiya a'zolari uchun Indoneziya tili va madaniyati markazida talabalar bilan uchrashuv hamda bitiruvchilar va xorijlik oqituvchilar bilan masofaviy suhbat ham o'tkazildi.






3. Markazda 2025/2026-o ‘quv yili davomida har oyning so‘nggi juma kunlari **“Handai Indonesia”** to‘garagi olib borildi. To‘garakda indonez tili guruhlar talabalari uchun notiqlik san’ati (berpidato), hikoya aytish (bercerita), pantun yozish



(berpantun) va she'r o'qish (berpuisi) yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berib borildi.

4. Markazda Indoneziya Respublikasi Boshlang'ich va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan har yili o'tkaziladigan **"Festival Handai Indonesia"** xalqaro musobaqasiga tayyorgarlik bo'yicha 2026-yil 1-maydan 30-maygacha brifing va saralash imtihonlari o'tkazildi. Turli bosqichlardagi indonez tili guruhlaridan 15 nafar talaba musobaqa uchun ijodiy ishlarini yakunlab ro'yxatdan o'tdi. Natijalar shu yilning 18-iyun kuni e'lon qilinadi.



5. 2026-yil 5-may kuni universitetga “**Ki Ageng Ganjur**” nomli Indoneziya folklor musiqa ansambli tashrif buyurdi va katta musiqiy tadbir o‘tkazildi. Indonez tili va madaniyati markazi tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun mas’ul etib belgilandi. Markazdagi 5 kun davomida **pantun** she’riy janri namunalari hamda tadbir boshlovchilarining nutqi bo‘yicha maxsus tayyorgarlik olib borildi.




6. **Ziyarah Travel MChJ** bilan hamkorlikda 20 nafar indonezshunos talabalarni malakaviy amaliyoti olib borildi va ish bilan ta'minlanishi masalalari bo'yicha suhbat o'tkazildi.



7. Markazda **“Kita Jelajah di Kota Tashkent”** loyihasini yakunlash ishlari olib borilyapti. Markaz Rahbari N. Abduganiyeva, katta o'qituvchi B. Samigov iqtidorli indonezshunos talabalar bilan birgalikda indonez tilida kontentlar jamlanmasini shu o'quv yili yakunida tugatishi re'jalashtirilgan.



DAFTAR ISI	
<i>Contents</i>	
1. Sejarah & Warisan Budaya <i>History & Cultural Heritage</i>	03
2. Cita Rasa Tersembunyi <i>Hidden Flavours</i>	08
3. Relaksasi & Alam <i>Relaxation & Nature</i>	12
4. Pesona sastra & sains <i>The Charm of Literature & Science</i>	12



8. Markazda 2026-yil 7-may sanasida indonezshunos talabalar uchun TDSHU bitiruvchisi, indonezshunos va iqtisodchi, Indoneziyaning KNB granti sohibi, FHI 2025 xalqaro notiqlik san'ati musobaqasi g'olibi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining Indoneziya FAdagi vakili, Indoneziyaning Bandung pedagogika universiteti magistranti **Abduvoitov Bekzod Hikmatullayevich** bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida mehmon mutaxassis tomonidan Indoneziyadagi ta'lim, xalqaro tajriba, grant imkoniyatlari hamda talabalik hayoti haqida suhbat olib borildi. Shuningdek, talabalarning FHI2026 xalqaro musobaqasidagi ishtiroki bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi.



9. Markaz kutubxonasini kengaytirish va bu orqali indonez tilini o'rganayotgan talabalar va tadqiqotchilarni Indoneziya tili va madaniyati bo'yicha ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari har o'quv yili uchun asosiy rejalardan biri hisoblanadi. Ushbu rejaga muvofiq, TDSHU rektorining 2026-yil 23-apreldagi 98-UM-son buyrug'i bilan N. Abduganiyevaning **“Indonez tili A1-A2”** indonez tilini o'rganuvchilar uchun o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqarildi va markaz va universitet kutubxonasiga taqdim etildi.



10. Markazda 2026-yil 15-maydan 15-iyungacha Indoneziyaning “**Darmasiswa**” davlat granti tanlovida qatnashishga nomzodlar uchun brifinglar tashkil etilib, grant uchun qo'yilgan talablar, hujjatlarni to'g'ri to'ldirish, suhbatga tayyorgarlik ko'rish uchun ko'rsatma va tavsiyalar berib borilmoqda.



**Indonezshunoslik
markazining rahbari**

N.Abduganiyeva